

SURXONDARYO VILOYATIDAGI SANGARDAKDARYO IXTIOFAUNASIGA GIDROELEKTR STANSIYALARNING TA'SIRI

Eshmurodova Lobar Zohid qizi

Termiz Davlat Universiteti, magistrant.

Bugungi kunda dunyo aholisining soni oshishi bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga, xususan baliq va baliq mahsulotlariga bo'lgan talab ham oshmoqda. Baliqlar to'yimli, parhizbop, organizm tomonidan oson o'zlashtiriladigan, vitamin va minerallarga boy mahsulotlardan biri hisoblanadi.

O'zining ozuqaviy xususiyatidan kelib chiqan holda foydaliligi jihatidan sut va tuxumdan keyingi o'rinda turadi. Yurtimizda so'ngi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi qishloq xo'jaligi sohasida, xususan baliqchilik sohasida ham keng doiradagi islohatlar amalga oshirilmoqda. Bir qancha zaruriy dasturiy chora-tadbirlar ishlab chiqarilib, amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Shulardan biri respublikamizda ovlanadigan baliqlarni ko'paytirish, yangi turlarni introduksiya qilish, baliq mahsulotlarini ishlab chiqarishning zamonaviy va innovasion uslublarini joriy etgan holda hajmlarni oshirish, tabiiy va sun'iy suv havzalaridan oqilona foydalanish, intensiv usulda baliq yetishtirishni rivojlantirish va boshqalar.

So'nggi yigirma yillikda dunyo ixtiofaunasi har yili o'rtacha 410 ga yaqin yangi turlar bilan boyimoqda va ayni vaqtga kelib mavjud valid turlarning soni 35 588 ga yetdi (Fricke et al., 2020). Surxondaryo havzasida baliqlarning 37 turi tarqalgan bo'lib shundan, Sangardakdaryoda 5 oila, 7 urug'ga mansub 7 ta turi mavjud hisoblanadi. Bu viloyatimizdagi havza umumiy baliq faunasining 19% ni tashkil etadi.

Tojik yalangbalig'i

Iskandaria pardalis Turdakov, 1941

Tavsifi. Yuqori jag'ida tishsimon o'simtasi bor. Tanasi yalang'och. Dum suzgich qanoti kam kesimtalik, parraklari aylanasimon. Rangi olachipor. Yelka suzgich qanotida III 6-7, anal suzgich qanotida 4-5 ta shu'la mavjud.

Tarqalishi. Olib borgan bir necha yillik (2019-2023) tadqiqotlarimizga ko'ra, Iskandaria pardalis (Turdakov 1941) havzaning barcha daryolarida – Surxondaryoning yuqori oqimi, Qoratog'daryo, To'palangdaryo, Sangardakdaryo, Xo'jaipok daryolarning quyi oqimlarida hamda Sheraboddaryoda ham uchrashi aniqlandi.

Biologiyasi. Urchishi iyun-avgust oylarida sekin oquvchi toshli qumli gruntlarda kechadi. Suv osti hayvonlari bilan ovqatlanadi.

Ahamiyati. Orol dengizi havzasi endemigi. Ovlash ahamiyatiga ega emas.

Sharq tojli yalangbalig'i (Sharq tojli eshvoyi)

Paracobitis longicauda Kessler 1872

Tavsifi. Yelka suzgich qanotining orqasida terisimon qatlam (taroq) bor. Tanasi mayda tangacha bilan qoplangan. Ba'zan tangachalari bo'lmaydi. Rangi och-sariq bo'lib, qoramtir dog'lar bor. Tanasining uzunligi 20 sm.gacha.

Tarqalishi. Tadqiqotlarimiz natijasida Paracobitis longicauda (Kessler, 1872) Surxondaryo suv havzasidagi barcha daryolarda (Qoratog'daryo, To'palangdaryo, Sangardakdaryo, Ho'jaipokdaryo) uchrashi aniqlandi.

Biologiyasi. 2-3 yilda jinsiy voyaga yetadi. Urchishi mart oxiridan avgustgacha davom etib, uvildirig'ini toshli va qumli toshli gruntlarga tashlaydi. Hasharotlar lichinkasi bilan ovqatlanadi.

Ahamiyati. Orol dengizi havzasi endemigi. Ovlash ahamiyatiga ega emas.

Kofarnixon yalangbalig'i

Triplophysa kafirigani Turdakov 1948

Tavsifi. Tanasi uzunchoq, dorsal qismi orqa suzgich qanotining boshlanish qismidan dum suzgich qanotining boshlanish qismiga qadar ikki tomondan siqilib boradi. Orqa suzgich qanoti birozgina qavariq bo'lib, qorin suzgich qanotidan oldinda joylashgan, uzunligi bosh uzunligidan hamisha qisqa. Dum suzgichi biroz o'yilgan, chetlari yumaloq. Tanasi silliq, tangachalarsiz. Yon chizig'i to'liq rivojlangan, dum suzgichining asosida tugaydi.

Tarqalishi. Bizning Surxondaryo suv havzalari bo'ylab ixtiologik tadqiqot ishlarini olib borganimizda Triplophysa kafirigani Surxondaryo, To'palang va Sangardak daryolarida kam sonda uchrashi aniqlandi, ammo Sheraboddaryoda bu turni uchratmadik.

Xolchik tezsuzari

Alburnoides holciki Coad et Bogutskaya, 2012

Tavsifi. Og'zi to'g'riga qaragan. Tanasi nisbatan baland. Orka suzgich qanotida II-III 7-9, anal suzgich qanotida III-IV 11-16 ta shu'la mavjud. Yon chizig'ida 44-51 tangacha bor. Halqum tishlari formulasi 2.5-5.2, 2.4-4.2. Tana uzunligi 14,5 sm.gacha boradi.

Tarqalishi. Surxondaryo havzasining Sangardak daryosida Qashqadaryo, Zarafshon daryolariga tegishli havzalar, barcha suv omborlari va kanallarda qayd qilingan. Shuningdek, Turkmaniston, Ozorbayjon, Rossiya (Dog'iston) suv havzalarida ham uchraydi.

Biologiyasi. 2 yoshda jinsiy voyaga yetadi. Suv havzalarining tubi qattiq qumli-shag'alli va toshli joylarida aprel-iyun oylarida urchiydi. Hasharot, bentos va jonivorlarning chiriyotgan qoldiqlari bilan ovqatlanadi.

Ahamiyati. Ovlanish ahamiyatiga ega emas

Amudaryo olabalig'i

Salmo trutta Linnaeus, 1758

Syn.: *Salmo trutta oxianus* Kessler,

Tavsifi. Tanasi yorqin-qizil va ko'k rangdagi dog'lar bilan qoplangan. Yelka suzgich qanotidan keyin yumshoq yog' suzgich qanoti joylashgan. Og'zida tishlari mavjud. Yelka suzgich qanotida III-IV 8-11 ta, anal suzgich qanotida II-III 8-9 shu'lalar bor. Yon chizig'idagi tangachalar soni 105-120 ta, birinchi oyquloq yoyidagi ustunchalar soni 17-19 ta, umurtqalari soni 54-56 ta. Og'irligi 3,5 kg. gacha. Tog'li Nurek suv ombori (Tojikiston) qurilgandan so'ng, bu yerda 8 kg.lik (kumja va olabaliq uzunligida) osoblari uchray boshladi.

Tarqalishi. Amudaryoning hamma tog'li irmoqlarida, Surxondaryo havzasining Sangardak daryosida uchraydi. Qoradaryoning Qirg'iziston territoriyasiga tegishli qismida iqlimlashtirilgan. Qashqadaryo viloyatining tog'li daryolariga asossiz ko'chirib o'tkazilgan.

Biologiyasi. 3-4 yoshida jinsiy voyaga yetadi. Urchishi daryolarning tog'li qismlarida sentyabr-oktyabr oylarida o'tadi. Suv osti umurtqasiz hayvonlari va hasharotlar bilan oziqlanadi. Yiriklari ko'pincha yirtqichlik qiladi.

Ahamiyati. Noyob baliq. Amudaryo endemigi. Ovlash taqiqlangan. O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan.

Suv havzalarida ovlanadigan baliqlar zahirasini oshirish, qimmatbaho baliqlar zotlarini ko'paytirish, yangi turlarni iqlimlashtirish va sifatli ozuqa bazasini shakllantirishda to'siq bo'ladigan bir qancha omillar mavjud. Ushbu omillardan biri gidroelektr stansiyalari qurilishi natijasida og'ir antropogen bosim (haddan tashqari ekspluatatsiya, atrof muhitning ifloslanishi, gidroelektr stansiya inshootlari ta'sirida yashash muhitining buzilishi, urchish va migratsiya davriga zararli ta'siri va degradatsiya kabi yo'qotishlar) hisoblanadi. Yurtimizda joylashgan Sangardakdaryo ham gidroenergetika ahamiyatiga ega bo'lgan daryolar qatoriga kiradi. Shuning uchun, tahdid ostida bo'lgan Sangardakdaryo baliq turlari va ekotizimlarni muntazam ravishda o'rganish, monitoring qilish va ularni muhofaza qilishni rejalashtirish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.M.Mipabdullaev, A.R.Kuzmetov, A.R. Qurbonov. O'zbekiston baliqlari xilma-xilligi (monografiya). – Toshkent: 2020. 113 bet.

2. Allayarov S., Sheraliev B. Surxondaryo havzasi baliqlari tur tarkibining hozirgi holati // Xorazm Ma'mun Akademiyasi Axborotnomasi, 2020. №10, –B. 13–17.

3. Allayarov S. Amudaryo havzasida tarqalgan Amudaryo yalangbalig‘i – *Oxynoemacheilus oxianus* (Kessler, 1877) ning morfologik belgilari // “O‘zbekiston zoologiya fani: hozirgi zamon muammolari va rivojlanish istiqbollari” III Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Toshkent, 2021. 18-19 noyabr, – B. 167-169. 39.

4. Allayarov S., Sheraliev B. Surxondaryo quyi oqimida tarqalgan baliqlarning biologik xususiyatlari // “Tabiiy fanlarning dolzarb masalalari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari to‘plami. Nukus, 2020, – B. 22-24.